ERTA YOSHDAGI BOLALARDA TASAVVURNI SHAKLLANTIRISHDA IKKINCHI TIL O‘RGANISHNING KOGNITIV AFZALLIKLARI

G‘aniyeva Shahlo Abduqahhor qizi
Qarshi davlat universitetining mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-6194-5292
e-mail: shahloganieva95@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 6–7 yoshli bolalarga ikkinchi tilni o‘rgatish orqali ularning tasavvur va ijodiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Erta yoshda til o‘rganish bolaning nafaqat lingvistik salohiyatini, balki tafakkur, idrok, xotira, tasviriy fikrlash kabi kognitiv faoliyatlarini ham faollashtirishi ta’kidlanadi. Intellekt xaritalar, dramatik topshiriqlar, fantaziya va assotsiatsiyaga asoslangan metodlar orqali bolada “to‘la fikrlash”, ya’ni chap va o‘ng miya yarimsharlarining integratsiyalashgan faoliyati shakllanadi. Amaliy kuzatuvlar natijalariga ko‘ra, ikkinchi tilni o‘rganayotgan bolalarda ijodiy fikrlash, tasavvur orqali muammoga yangicha yondasha olish, og‘zaki ifoda va obrazli tafakkur ko‘nikmalarining rivojlanishi kuzatildi. Shuningdek, baholashda MELQO tizimidan foydalanish bolalardagi tasavvurni aniq mezonlar asosida tahlil qilishga imkon beradi.*

Kalit so‘zlar: *tasavvur, ijodiy fikrlash, ikkinchi til, 6–7 yosh, Mind Map, MELQO, vizual metod, fantaziya, assotsiatsiya, bilingvizm, to‘la fikrlash, dramatik topshiriq, bolalar psixologiyasi, tafakkur.*

Независимый исследователь Каршинского государственного университета

Аннотация: *В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются возможности развития воображения и творческого мышления детей 6–7 лет посредством обучения второму языку. Подчёркивается, что изучение языка в раннем возрасте активизирует не только лингвистический потенциал ребёнка, но и такие когнитивные процессы, как мышление, восприятие, память и образное мышление. Методы, основанные на интеллект-картах, драматизации, фантазии и ассоциациях, способствуют формированию у ребёнка «целостного мышления», то есть интегрированной деятельности левого и правого полушарий головного мозга. По результатам практических наблюдений у детей, изучающих второй язык,*

отмечено развитие творческого мышления, умения по-новому подходить к решению проблемы посредством воображения, устной выразительности и образного мышления. Кроме того, использование системы MELQO при оценивании позволяет анализировать воображение детей на основе чётких критериев.

Ключевые слова: *воображение, творческое мышление, второй язык, 6–7 лет, интеллект-карта (Mind Map), MELQO, визуальный метод, фантазия, ассоциация, билингвизм, целостное мышление, драматизация, детская психология, мышление.*

Abstract: *This article examines, from theoretical and practical perspectives, how teaching a second language to children aged 6–7 can develop their imagination and creative thinking. It is argued that early language learning activates not only a child’s linguistic potential but also cognitive processes such as thinking, perception, memory and visual thinking. Methods based on mind maps, dramatic tasks, fantasy and association are described as a way of fostering “whole-brain thinking”, understood as the integrated activity of the left and right cerebral hemispheres. According to practical observations, children learning a second language showed progress in creative thinking, the ability to approach problems in new ways through imagination, oral expression and figurative thinking. The use of the MELQO framework for assessment is also shown to allow children’s imagination to be analysed against clear criteria.*

Keywords: *imagination, creative thinking, second language, ages 6–7, Mind Map, MELQO, visual method, fantasy, association, bilingualism, whole-brain thinking, dramatic tasks, child psychology, thinking.*

Kirish

Zamonaviy ta’lim jarayonida insonning shaxsiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichi inson hayotidagi eng sezgir va muhim davr bo‘lib, aynan shu bosqichda shaxsning kognitiv, lingvistik va psixologik asoslari shakllanadi. 6–7 yosh bola uchun yangi tafakkur bosqichining boshlanish nuqtasidir. Bu davrda bolaning xotirasi kuchayadi, diqqatini ixtiyoriy boshqara boshlaydi, nutqdagi ravonlik va mustaqil fikrlash shakllanadi [1]. Shu sababli bu yoshda ta’limga, ayniqsa xorijiy tilni o‘rganishga bo‘lgan salohiyat yuqori darajada bo‘ladi.

Nazariy asos

Psixologik izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, bola 7 yoshga yetguniga qadar bosh miya yarimsharlari orasidagi neyron bog‘lanishlar eng tez rivojlanadigan holatda

bo‘ladi [2; 3]. Bu davrda berilgan ta’lim, xususan, til o‘rgatish orqali nafaqat lug‘aviy, balki umumiy tafakkur, tasavvur va intuitsiyani ham kuchaytirish mumkin. Sperri nazariyasiga muvofiq, chap yarimshar mantiq, tahlil va rejalashtirish uchun mas’ul bo‘lsa, o‘ng yarimshar tasavvur, metafora, analogiya va intuitiv fikrlarni boshqaradi [4]. Ikkinchi tilni o‘rganish jarayonida bu ikkala miya qismi birgalikda ishlaydi, bu esa “to‘la fikrlash”, ya’ni integrallashgan tafakkur salohiyatining shakllanishiga olib keladi. Aynan shu sababli bilingv bolalar monolingv bolalarga qaraganda ko‘proq ijodkorlik, muammoga yangicha qaray olish va alternativ yechimlarni tezroq topish qobiliyatiga ega bo‘ladilar [5].

Erta yoshda tasavvurni rivojlantirish faqat rasm chizish yoki ertak to‘qish bilan cheklanmaydi. Tasavvur — bolaning ichki olamida shakllanayotgan tafakkur strukturasi bo‘lib, u real hayotdagi obrazlar, voqealar, voqealar ketma-ketligi, assotsiatsiyalar, his-tuyg‘ular va ularni ifoda etish vositalaridan iborat murakkab mexanizmdir [6]. Til o‘rganish esa bu tasavvurlarni so‘z, talaffuz, ifoda, situatsiya va muomala orqali jonlantiradi. Har bir yangi o‘rganilgan so‘z bolada yangi tushuncha, yangi voqelik, yangi bog‘liqlik paydo qiladi. Bu esa tafakkurning kengayishiga, dunyoqarashning shakllanishiga xizmat qiladi.

Amaliy metodlar


Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xorijiy tilni o‘qitishda “Ilm yo‘li” variativ dasturi asosida olib borilgan amaliy tajribalarda aynan tasavvurni kuchaytirishga qaratilgan metodlar qo‘llandi [7]. Bu metodlarga dramatizatsiya, rolli o‘yinlar, jonli rasmlar asosida gap tuzish, hikoya va ertak to‘qish, rasm chizib, unga asoslanib gapirish, voqeani davom ettirish, obrazli fikrlash asosida savollar berish kabilar kiradi. Har bir topshiriq orqali bola nafaqat tilni o‘rganadi, balki o‘zining ichki dunyosini ham kengaytiradi, yangi obrazlar yaratadi, mavjud bilimlar bilan yangilarini bog‘laydi.

Shu jarayonda eng samarali texnologiyalardan biri “Intellekt xarita”dan foydalanish bo‘ldi [8; 9]. Intellekt xaritalar yordamida bola bir mavzuga oid barcha tushunchalarni vizual tarzda bir joyga jamlaydi. Bu usul nafaqat ma’lumotni tartibga solish, balki o‘rganilganlarni mantiqiy bog‘lash, yangi fikrlarni tug‘dirish, eslab qolishni kuchaytirish va assotsiatsiyalar hosil qilish uchun ham samaralidir. Masalan, “Hayvonlar” mavzusini o‘rganayotgan bola markazga “Hayvonlar” so‘zini yozadi, atrofida esa yashash joyi, turi, tovushi, rangi, foydasi, bolalari kabi shoxlar hosil qiladi. Har bir shoxda bola o‘z fikrini bildiradi. Bu nafaqat til o‘rganishga, balki mustaqil fikr yuritish, xotirani kuchaytirish va tasviriy fikrni faollashtirishga xizmat qiladi. Bu usul ayniqsa tashqi olam haqidagi ma’lumotlarni o‘rganish uchun muhimdir.

Intellekt xarita:

– muammoga aniqlik kiritadi;
– muammoni yechish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni tartibga soladi;
– vaziyatni to‘la tasavvur qilishga va tasvirlashga yordam beradi;
– barcha zarur ma’lumotlarni saqlash vositasiga aylanadi;
– g‘ayrioddiy yechimlarni rag‘batlantiradi.

Quyida “Tasavvur” intellekt xaritasi keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. “Tasavvur” intellekt xaritasi

Intellekt xaritada ko‘rsatilganidek, axborot tashqi olamdan olinadi. Inson bu ma’lumotlarni asosan beshta sezgi (sensor) kanali orqali qabul qiladi: ko‘rish orqali — 83 %, eshitish orqali — 11 %, hid bilish orqali — 3,5 %, tuyish orqali — 1,5 %, ta’m bilish orqali — 1 % ma’lumot olinadi. Bu ma’lumotlar inson miyasining chap yarimsharida idrok qilinadi. Shu ma’lumotlar bosh miyaning o‘ng yarimsharida vujudga keladigan tasavvurlarga va demak, ijodiy fikrlashga asos bo‘ladi.

Tasavvurni baholash va kuzatuv natijalari

Bolalarda rivojlangan tasavvurni aniqlash va baholash uchun xalqaro MELQO tizimidan foydalanish mumkin [10]. Ushbu tizim orqali bolaning og‘zaki nutqi, fonologik bilimlari, yozuvdan oldingi malakasi, hikoya tuzish, tasvir asosida tahlil qilish va fikr bildirishi baholanadi. Shuningdek, MELQO baholashlari bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, idrok, tafakkur va muloqot ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga oladi. Baholashda quyidagi mezonlar asosida

yondashiladi: bola ertaknamo rasmga qarab nima bo‘lganini aytib beradi, undan nima kutilayotgani, keyin nima bo‘lishi haqidagi savollarga javob topadi.

Shu asosda olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, xorijiy tilni o‘rganayotgan bolalarda fantaziya asosida gapira olish, ilgari o‘rganilgan so‘zlarni yangi kontekstda qo‘llay olish, hikoyani davom ettira olish, ixtiyoriy diqqatni ushlab tura olish, obrazlar bilan ishlay olish, mantiqiy ketma-ketlikda fikr yuritish qobiliyatlari yuqori rivojlangan. Bu esa ularning tasavvur darajasi nafaqat keng, balki ijodiy elementlarga boy ekanini ham ko‘rsatdi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 6–7 yoshli bolalarda ikkinchi tilni o‘rganish nafaqat lingvistik qobiliyatlarni, balki tasavvur, tafakkur, nutq va ijodkorlik salohiyatini rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Til faqat aloqa vositasi emas, balki tafakkurni shakllantiruvchi kuchdir. Shuning uchun ikkinchi tilni o‘qitishda so‘z yodlashga emas, balki bolaning ichki dunyosini ochib beruvchi metodik yondashuvlarga — dramatik topshiriqlar, intellekt xaritalar, hikoya asosida ishlash, tasvirga asoslangan savol-javoblar va og‘zaki fantaziyalarga tayanish lozim. Bularning barchasi bolada ijodiy tafakkurning shakllanishiga, so‘z boyligining kengayishiga, tasavvur orqali ongli fikrlashning rivojlanishiga zamin yaratadi. Erta yoshda shakllantirilgan bu qobiliyatlar kelajakda ijtimoiy faol, erkin fikrli va ijodkor shaxs bo‘lib yetishishning poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Немов Р.С. Психология: в 3 кн. — Москва: Владос, 2005.
2. Medina J. Brain Rules for Baby. — Seattle: Pear Press, 2014.
3. Пенфилд У., Робертс Л. Речь и мозговые механизмы. — Принстон: Принстонское издательство, 1959.
4. Sperry R.W. Science and Moral Priority: Brain Circuits and Functions of the Mind. — New York: Columbia University Press, 1983.
5. Barac R., Bialystok E. Bilingual effects on cognitive and linguistic development: Role of language, culture, and education // Child Development. — 2012.
6. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. — Москва: Педагогика, 1982.
7. “Ilm yo‘li” variativ dasturi. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, 2018.
8. Buzan T. The Mind Map Book: Unlock Your Creativity, Boost Your Memory, Change Your Life. — London: BBC Active, 2010.

9. Ganiev A.G., G‘aniyeva Sh.A. Formation of Creative Thinking Skills in 5–6-Year-Old Children with the Help of Mind Maps // Research for Revolution Journal. — 2020.

10. MELQO. Measuring Early Learning Quality and Outcomes. — UNESCO, UNICEF, World Bank, 2016.